

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘konlardagi narxlar inobatga olinmagan**)).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2021- yil 9 - iyun kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
45 000 so'mdan 68 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori", Namangan shahrining "Namangan chorsu dehqon universal bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (45 000 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori" va "Mirobod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 68 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorlarda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 46 000 - 55 000 so'm oralig'ida sotilmoqda.



Qo'y go'shti
50 000 so'mdan 80 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (50 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Nukus shahrining "Nukus dehqon bozori" va Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori"da (xususiylar tadbirkorlar rastalarida 80 000 so'm) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorda qo'y go'shti minimal 60 000 so'm oralig'ida sotilmoqda.



Kartoshka

1 500 soʻmdan 7 000 soʻmgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga koʻra, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori” va Fargʻona shahrining “Markaziy dehqon bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan, kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (1 500 soʻm) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (7 000 soʻm) qayd etildi. Ushbu bozorda arzonlashtirilgan rastada sotilayotgan kartoshkani minimal 4 000 soʻmga ham xarid qilish mumkin.

Piyoz

750 soʻmdan 3 000 soʻmgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga koʻra, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da (750 soʻm) roʻyxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da sotuvda boʻlgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (3 000 soʻm). Shuningdek, mazkur bozorda piyozni minimal 1 500 soʻmga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

3 000 soʻmdan 9 000 soʻmgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga koʻra, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”da (3 000 soʻm) qayd etilgan.





Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, hamda Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da sotuvdagi tozalangan va saralangan sabzining narxi maksimal narx sifatida (9 000 so‘m) qayd etildi. Shu bilan birga, mazkur bozorlarda sabzini minimal 4 500 so‘mdan xarid qilish mumkin.

Tuxum

6 000 so‘mdan 14 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (6 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori” va “Farhod dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 14 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 8 500 – 9 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 18 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”da (“Nukus-2” va boshqa mahalliy navli guruchlar 5 000 so‘m) qayd etilgan.





Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Eski jo‘va dehqon bozori”da 18 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorlarda guruchning minimal narxlari 6 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i 14 000 so‘mdan 24 000 so‘mgacha (litr)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori” va Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 14 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlardagi xususiy tadbirkorlar rastalarida paxta yog‘ini 14 500 – 18 000 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Yangiyo‘l shahrining “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Qo‘yliq dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 24 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda kungaboqar yog‘ini minimal 16 000 – 19 500 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Shakar

7 300 so‘mdan 9 000 so‘mgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga ko‘ra minimal narxi Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”dagi arzonlashtirilgan rastalarda (7 300 so‘m) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”, Termiz shahrining “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, va Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da (9 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda shakarni minimal 7 300 – 8 500 so‘m oralig‘ida ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil ma’lumotlar quyidagi ko‘rinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida**

MA’LUMOT*

2021- yil 9-iyun holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	45000	50000	3500	1300	3500	8000	5000	14000	8000
		max	61000	60000	4500	2000	5000	11000	13000	20000	8500
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	50000	65000	4000	1500	4000	8000	8500	14000	8000
		max	58000	70000	4500	2000	5000	11000	16000	19500	8500
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	54000	55000	2000	1000	3000	6000	6000	15000	8000
		max	62000	60000	3500	2000	6000	10000	14000	23000	9000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	2500	1500	5000	7000	5000	14000	8500
		max	62000	65000	4000	2000	7000	10000	13000	22000	9000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	57000	64000	3500	1000	5500	9000	6000	17000	8500
		max	60000	68000	4000	1700	6500	11000	13000	22000	9000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	52000	58000	2500	800	4000	7000	7500	14500	8000
		max	63000	62000	4000	1000	6000	10000	15000	23000	8500
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	45000	65000	2500	1200	5000	8000	6500	15000	8500
		max	55000	70000	4500	2000	6000	11000	17500	22000	9000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	55000	68000	2500	1300	4500	10000	7500	16000	8000
		max	65000	73000	4000	2000	9000	13000	15000	23000	8800
9.	Termiz shahar “Markaziy dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	65000	1500	750	5000	8500	5000	16000	8000
		max	58000	65000	3500	1000	6000	10000	15000	21000	9000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	52000	65000	2000	800	4000	7000	7000	14000	8000
		max	62000	72000	3500	1500	7000	10000	14000	21000	9000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	55000	55000	1500	1000	5000	9400	7500	16000	8500
		max	60000	65000	4000	2000	7000	13000	16500	23000	8500
12.	Yangiyo‘l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo‘l shahar dehqon bozori”	min	50000	55000	2500	1000	6000	7000	6000	18000	8000
		max	62000	70000	4000	1500	7000	12000	17000	24000	8500
13.	Farg‘ona shahar “Farg‘ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	50000	65000	1500	1500	5000	8000	7000	14600	8300
		max	60000	70000	5000	2000	6000	11000	13000	19000	8500
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	48000	65000	3000	1300	4000	7000	6000	15500	8500
		max	63000	68000	4000	2500	5000	11000	13000	21000	8500
15.	Toshkent shahar “Eski jo‘va dehqon bozori”	min	48000	60000	3000	1500	5000	9000	6000	15500	7500
		max	65000	75000	5000	2500	7000	14000	18000	21000	8000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	56000	60000	4000	1500	4500	8500	6000	16000	7500
		max	65000	80000	7000	3000	9000	13000	15000	24000	8000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	46000	50000	2500	800	3500	8500	6500	15500	7300
		max	68000	78000	4000	2500	6000	14000	17000	23000	9000
18.	Toshkent shahar “Qo‘yliq dehqon bozori”	min	49500	58000	2500	1500	4500	8000	6000	16000	7500
		max	65000	75000	5000	2000	7000	12000	17000	24000	8500
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	55000	60000	2800	1500	6000	9000	6000	15000	8000
		max	68000	78000	4000	2000	8500	13000	17000	24000	8300

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.